

TEKNOLOGIYALARI mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari 13.10.2023. 90-94 bet.

23. Rustamov Maxammadi Jabborovich, Irgasheva Umida Abdimal kizi, and Iskandarov Azizbek Ilxom o'g'li. "BIR JINSLI BO'LMAGAN ISSIQLIK TARQALISH TENGLAMASINI FURYE (O'ZGARUVCHILARNI AJIRATISH) USULI YORDAMIDA YECHISH". RESEARCH AND EDUCATION, vol. 2, no. 2, Feb. 2023, pp. 79-84, <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1796>.

24. Norqo'ziyev , Q. (2023). MOBIL ROBOTLAR UCHUN YO'LNI REJALASHTIRISH ALGORITMI. Research and Implementation. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/rai/article/view/746>

25. Тангиров Х. Э., Алибоев С. Х. Методическая система организации обучения математике в общеобразовательной школе с использованием информационных технологий //Педагогические науки. – 2014. – №. 1. – С. 12-16.

TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISH

t.f.d. prof. Mamatov Narzullo Solidjonovich

“TIQXMMI” milliy tadqiqot universiteti

Ibroximov Sanjar Rustam o'g'li

Namangan davlat universiteti Informatika kafedrası tayanch doktoranti

ib.sanjar93@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellektdan ta'limni boshqarishda foydalanish afzalliklari ko'rib chiqilgan bo'lib, unda sun'iy intellektdan foydalanib talabalar faolligi, ularni bilim va ko'nikmalarini oshirish, ta'lim olishni individuallashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va ta'lim boshqaruvini yaxshilash muammolari yechimlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'limni boshqarish, individual ta'lim.

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) turli sohalarni, jumladan, ta'lim tizimini ham tezkor rivojlantirishga olib kelmoqda. Hozirgi kunda SI dan ta'limni boshqarishda qisman qo'llanib kelinmoqda. Jumladan, o'quv jarayoni, talabalar natijalarini yaxshilash va ma'muriy vazifalarni tartibga solish kabilarda qo'llanilmoqda. SI - bu mashinali o'qitish algoritmlari, neyron tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash yordamida inson aqliy jarayonlarini simulyatsiyalovchi ilg'or texnologiya bo'lib, u turli sohalarni, jumladan sog'liqni saqlash, moliya va ishlab chiqarish rfb i sohaslarini rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda. So'nggi yillarda SI ta'lim sohasiga ham kirib bordi xususan, ta'limni boshqarishda SI o'quv jarayoni, ta'lim sifati yaxshilash va ma'muriy vazifalarni avtomatlashtirishga mukammal bo'lmasada yordam bermoqda[5].

Ta'limni boshqarishda sun'iy intellektning qo'llanilishi

Hech shubha yo'qki sun'iy intellekt albatta insoniyat uchun qulayliklar yaratadi va hayotning ko'plab sohaslarida qo'llanilishi mumkin. Bunda ta'lim boshqaruvi ham

bundan mustasno emas. Ko'plab olimlar va tadqiqotchilar SI ni ta'limni boshqarish sohasida qo'llanilishiga aniq usullarini ko'rsatishgan. Ta'lim boshqaruvi imkon qadar SIDan ayrim muassasalarda kuzatilgan intellektual repetitorlik tizimlari yordamidan foydalanadi. Intellektual repetitorlik tizimlari - bu talabalarga individual ta'lim berish uchun SIDan foydalanadigan kompyuter dasturlaridir. Zhang va Li bu kabi tizimlar "har bir talabaning individual ta'lim uslubiga moslasha oladi" deb hisoblashadi [1]. SIDan foydalanganda o'qituvchilar vaqtini tejashligi va yanada izchil baholashi ta'minlanadi va o'zlashtirishi past bo'lgan talabalarni aniqlash hamda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun talabalar ma'lumotlarini tahlil qilishda ham undan foydalanish mumkin. Shuningdek, SI individual o'rganish imkonini beradi. Individuallashtirilgan ta'lim ko'plab ijobiy ta'sirlar ko'rsatadi, jumladan ta'limni yaxshilash natijalar va talabalar faolligini oshirishi mumkin [2]. Umuman olganda, SIDan shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llarini yaratishda ham foydalanish mumkin. Talabalar shaxsiy ehtiyojlari va afzalliklaridan kelib chiqqan holda ularga sun'iy intellektga asoslangan chatbotlardan foydalanishlari mumkin, savollariga javob berish va darsdan tashqari vaqtlarida ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash turli xil maslahatlar berishi va fandagi ma'lumotlarga to'yinishiga olib kelishi mumkin [3]. Quyida [4] ish muallifalari tomonidan ta'limga oid quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

- **Individuallashtirilgan ta'lim.** SI ni talabalarni kuchli, kuchsiz va o'qish metodlarini tahlil qilish orqali yakka tartibda o'rganish tajribasini yaratishda qo'llash;
- **Baholash.** SI baholash jarayonini avtomatlashtirishi, vaqtni tejash va ob'ektiv baholashni ta'minlaydi;
- **Talabalarni qo'llab-quvvatlash:** SI ga asoslangan chatbotlar talabalarga uzluksiz yordam, ya'ni savollarga javob berishi va yo'l-yo'riq ko'rsatadi;
- **Baxolar analitikasi.** SI talabalar ma'lumotlarini tahlil qilib, ularni ko'nikmalarini bashoratlash, ko'rsatkichi past bo'lgan talabalarni aniqlash va ularni ta'lim olishini davom etishi uchun tavsiyalar beradi;
- **O'quv dasturlarini loyihalash.** SI asosida o'quv dasturlarini loyihalashtirish uchun talabalar faoliyati va fikr-mulohazalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali optimal o'quv dasturlari tuzish mumkin;
- **O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash.** SI o'qituvchilarga baholash, darsni rejalashtirish va fikr-mulohazalarni taqdim etish kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Xulosa

SI quvvatiga ega vositalar o'qituvchilarga o'rganish tajribasini individuallashtirish, talabalarning faolligini yaxshilash va real vaqt rejimida fikr-mulohazalarni taqdim etishga yordam beradi. Bundan tashqari, u ta'lim muassasalariga ma'muriy vazifalarni soddalashtirish, baholash va baholashni avtomatlashtirish hamda resurslarni taqsimlashni optimallashtirishda yordam berishi mumkin. Ta'limni boshqarishda SI ni qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda samarali vosita, biroq SI texnologiyasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish va uning mumkin bo'lgan cheklovlarini bilish shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zhang, J., & Li, S. (2021). An overview of intelligent tutoring systems. *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 14(1), 99-110.
2. Chen, X., Li, L., Li, X., & Li, J. (2021). A review of personalized learning based on artificial intelligence. *International Journal of Emerging Technologies in Learning*, 16(4), 35-47.
3. Liu, Y., Zhao, S., Li, J., & Zhang, B. (2020). Intelligent chatbots in education: A review of recent advances. *Educational Technology Research and Development*, 68(1), 87-104.
4. Singh, V., & Singh, A. (2021). Role of artificial intelligence in educational management. *Journal of Education and Practice*, 12(12), 78- 85.
5. Igbokwe, Innocent. (2023). Application of Artificial Intelligence (AI) in Educational Management. *International Journal of Scientific and Research Publications (IJSRP)*. 13. 300. 10.29322/IJSRP.13.03.2023.p13536.

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION: PAVING THE WAY FOR A MORE EFFECTIVE LEARNING EXPERIENCE

(DSc), prof. Mamatov Narzullo Solidjonovich

“TIAME” National Research University

Ibrokhimov Sanjar Rustam ugli

Namangan state university

m_narzullo@mail.ru

Abstract: Artificial Intelligence in Education (AIED) is rapidly evolving, offering innovative possibilities to transform the way we approach learning and teaching. While AIED initially focused on automating traditional educational practices, its potential extends far beyond that. This review paper explores how AIED can offer more than mere automation and why it is crucial to consider its role in supporting collaborative learning, student forum monitoring, continuous assessment, AI learning companions, AI teaching assistants, and as a research tool to enhance the learning sciences. By examining these facets, we aim to shed light on the exciting opportunities that AIED can bring to education while acknowledging the complex challenges and ethical considerations involved.

Keywords: Artificial Intelligence in Education (AIED), Innovative possibilities, Transforming learning and teaching, Automation in education, Collaborative learning.

Introduction

The field of Artificial Intelligence in Education (AIED) has seen significant growth and development in recent years. Initially, AIED aimed to automate existing educational practices, but it has the potential to offer much more. In this review paper, we explore how AIED can revolutionize education by going beyond automation and fostering a more effective and inclusive learning experience. We delve into several key areas where AIED can make a substantial impact, including collaborative learning,